

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA FIZIKANI INGLIZ TILIDA O‘QITISH VA FANNING TEXNIK YUTUQLARINI O‘ZLASHTIRISHDAGI INGLIZ TILI AFZALLIKLARI

Munixon Rajabova,

Sarvar Xudoyqulov

Tashkent State Pedagogical University

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’limni ingliz tilida olib borish va fizikani ingliz tilida o‘qitishning afzalliklari haqida, fizika fanining ingliz tilida chop etilgan darsliklar maqolalarni o‘zlashtirishdagi bir muncha qulayliklar, zamonaviy axborot yutuqlaridan foydalanishdagi ingliz tilining zaruriyati borasida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** pedagogika, fizika, chet tillari axborot texnologiyalari, yutuqlar, ta’lim, metod, o‘zlashtirish.*

Kirish: Tabiiy fanlar sinfiga kiruvchi ushbu fan hayotimizning turli tarmoqlarida o‘zining namoyon etadi. Tibbiyotdan sanoatgacha, yer osti ishlaridan koinotni tadqiq etishgacha bo‘lgan sohalarda ushbu fanga bo‘lgan katta ehtiyojni ko‘rishimiz mumkin. Iqtisoslashtirilgan maktablarning ko‘plarida ta’limni turli tillarda keng qamrovda olib borishmoqda buning natijasida o‘quvchi yoshlar fan sohalari bo‘yicha o‘zlari uchun zarur bilim ko‘nikmani erkin topish va o‘zlashtirishda bir muncha qulayliklarga erishishlari mumkin.

Asosiy qism: Xususan ingliz tilida ta’lim tashkil etilayotgan iqtisoslashtirilgan maktablarda fizikani o‘qitish o‘zining ijobiy jihatlarini namoyish etadi. Fizikani o‘qir ekan uni nafaqat o‘z ona tilida balki ingliz tilida o‘zlashtirishi uning uchun yangi imkoniyatlar olib keladi. Xorij olimlarning darsliklarni maqolalarni o‘qishda o‘zlashtirishda qulayliklarga ega bo‘lishadi hali biz uchun yangi bo‘lgan axborot dasturlari zamonaviy texnika yutuqlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyatlarini oshishiga olib keladi. Nobel mukofoti laureanti fizik K.Viman tomonidan “Physics Education Technology” (PhET) sayti yaratilgan. PhET saytida 100ga yaqin fanlar mavjud bo‘lib ularda simulyatsion tajribalarni bajarishda qulayliklar yaratadi. Ma’lum sharoitni talab etadigan va hayot uchun xavfli bir qancha tajribalarni o‘zlari reallikka yaqin sharoitda

bajarishlari va bu borada ko'nikma hosil qilishlari uchun imkoniyatni oshiradi. Fizika aniqlikni talab qiladigan sohalardan bo'lganligi boisi har qanday tajriba ham aniq ma'lumotlar olish uchun bir necha marotaba takroriy o'tkazishni talab qiladi. Bu kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish inson ko'nikmasini oshishiga olib kelsa bulardan foydalanishda esa ingliz tili bilish darajasi juda qo'l keladi. Birgina "PhET tizimining o'zida kimyo fizika matematika biologiya fanlaridan bir qancha tajribalarni simulyatsiya tarzida asliga yaqin darajada bajarish imkoniyatiga ega. Fizikada hozirgi axborot texnologiyalardan foydalanish o'zining qulayliklarini namoyon etadi va o'quvchi uchun darsni o'zlashtirish fanni o'rganishga yaqindan yordam beradi. Bu kabi dasturlardan yana biri "**Stellarium Windows va Linux**" uchun yaratilgan astronomik dastur "Stellarium" dasturi asosan koinotni kuzatishda yaqindan yordam beradi u orqali osmon sferasi elementlari yulduzlar koordinatalari yilduzlargacha bo'lgan masofalarni aniqlash mumkin. Ushbu dastur shu bilan birga quyoshning kunlik, yillik ko'rinma harakatlari kabi bir qancha mavzularni o'z ichiga oladigan 3D formatidagi dastur ham hisoblanadi yuqorida keltirib o'tilgan dasturlar fizikan o'qitish uni rivojlantirish uchun muhim yordam bersa ularni mustaqil o'rganish va ishlata bilish uchun ingliz tilini bilish darajasi talab etilad. Bularning barchasini ixtisoslashtirilgan va ma'lum yo'nalish bo'yicha chuqur bilim o'zlashtirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun imkoniyat eshiklarni keng ochadi. Jahon tillaridan hisoblangan ingliz tili bo'lsa ularni o'rganish va o'zlashtirishiga zarur hisoblanadi

Xulosa: O'quvchining kelajakda rivojlanishini to'xtatmaydigan, balki takomillashtiradigan, yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishga imkon beradigan muhim asos sifatida, talim asosiy rol o'ynaydi. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarda fizik fanining rivojini ta'minlash uchun zamon talablariga mos ravishda ingliz tilining o'rgatilishi ham alohida o'rin kasb etadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ingliz tili afzalliklari nafaqat o'quvchi uchun balki uning kelgusida jamiyat hayotida tutgan o'rniga ham tasir etadi. Ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2018/1(69). Saidova Nazokat Sayfullayev. PhET saytidagi Modellardan fizika faniga oid tajribalarni o‘tkazish, laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatlari.
2. Kamiljonov To‘lqinjon Tilaboyev, Shohruh Usmonov "Fizikani o‘qitishda zamonaviy uslublardan foydalanish". Academic Research Educational in Sciences " 2022/11(3).
3. Mirzayeva, G. (2023). The role of digital educational technologies in teaching physics. *Science and innovation*, 2(B4), 211-216.
4. Muniskhon, R. (2023). Improving the use of design thinking methodology in teaching English for specific purposes (ESP). *Genius Repository*, 26, 58-60.
5. Munisxon, R. (2022). Theory of Teaching Skills in Pedagogy. *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations*, 12, 31-33.
6. Pulatbek, S. (2023). Importance of digital educational technologies in teaching foreign languages. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 18, 298-304.
7. Rajabova Muniskhon Rajabovna. (2022). Modern approach to teaching foreign languages and making students interested in the lesson. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 109–113.
8. Sagdullaev Pulatbek. (2023). Improving the language competencies of future teachers by means of digital technologies. *Academia Science Repository*, 4(04), 116–124.
9. Sagdullaev, P. (2022). Modern approaches and innovations in teaching foreign languages. *Андррияновские педагогические чтения*, 1(1), 210-212.
10. Sagdullaev, P. (2023). The innovations and variety of approaches in teaching foreign languages. *Science and innovation*, 2(B4), 142-148.
11. Sagdullayev, P. K. (2020). Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish. *PEDAGOGIKA*, 5(1), 19-21.
12. Sagdullayev, P.K. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarning til kompetensiyalarini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. *PEDAGOGIKA*, 2(1), 342-345.
13. Sarvarbek Xudoyqulov. "Amaliy va tabiiy fanlar ilmiy jurnali "2024/01(03).